



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 4 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

№	MUNDARIJA	Page
1.	ФИНАНСОВАЯ ОТЧЕТНОСТЬ СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИЗ ПРОБЕЛОВ РЕГУЛИРОВАНИЯ <i>Мусаев Азиз Анварович</i>	4
2.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA RISKLARNI BOSHQARISHNING MOLIYAVIY MEKANIZMLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR <i>Abdullayev Erkinjon A'zamovich</i>	6
3.	RIVOJLANGAN BOZORLAR VA O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA SUG'URTA TASHKILOTINING TO'LOV QOBILİYATINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Xalikov Umid Raxmatullayevich</i>	9
4.	AKSIYADORLIK JAMIYATLARIGA INVESTORLARNI JALB ETISHDA FOND BOZORIDAGI AKSIYALARINI NARXI TAHLILI <i>Ibragimov G'anijon G'ayratovich</i>	12
5.	MONETIZING SOCIAL MEDIA: OLS ESTIMATES OF CONTENT INTENSITY, ENGAGEMENT, AND ADVERTISING ON SALES <i>Majidov Abdulaziz Abdurahimovich</i>	16

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



RIVOJLANGAN BOZORLAR VA O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA SUG'URTA TASHKILOTINING TO'LOV QOBILIYATINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xalikov Umid Raxmatullayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Email: umid.khalikov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Solvency II va O'zbekistonning sug'urta sohasidagi zamonaviy qonunchiligi doirasida sug'urta tashkilotining to'lov qobiliyatini baholashga nisbatan yondashuvlarning asosiy elementlarining qiyosiy tahlili keltirilgan. Sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni taqqoslash va guruhlash orqali Solvency II parametrlarini joriy etishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida hamda birinchi bosqichda amaldagi sug'urtalovchi va qayta sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyati to'g'risidagi nizomga tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: to'lovga qobiliyat, moliyaviy holat, likvidlik, aktivlar, majburiyatlar, sug'urtalovchilar, risklar, sug'urtalanuvchilar.

Abstract: The paper provides a comparative analysis of the key elements of approaches to assessing the solvency of an insurance organization within the framework of Solvency II and the current legislation of the Republic of Uzbekistan. By comparing and grouping the factors affecting the solvency of insurers and reinsurers, the paper draws appropriate conclusions regarding the feasibility of implementing the Solvency II parameters and the current solvency regulations for insurers and reinsurers.

Keywords: solvency, financial condition, liquidity, assets, liabilities, insurers, risks, policyholders.

Абстрактный: В работе приведён сравнительный анализ ключевых элементов подходов к оценке платёжеспособности страховой организации в рамках Solvency II и современного законодательства Республики Узбекистан. При помощи сравнения и группировки факторов, влияющих на платёжеспособность страховщиков и перестраховщиков, сделаны соответствующие выводы в отношении целесообразности внедрения параметров Solvency II и действующего положения платёжеспособности страховщиков и перестраховщиков.

Ключевые слова: платёжеспособность, финансовое состояние, ликвидность, активы, обязательства, страховщики, риски, страхователи.

Kirish (Введение/Introduction).

Hozirgi bosqichda sug'urtalovchi uchun to'lov qobiliyati mezoniga rioya qilish juda muhimdir, bu sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urtalanuvchi bilan tuzilgan sug'urta shartnomasidan kelib chiquvchii majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish qobiliyatini anglatadi. Sug'urta tashkilotlari O'zbekiston iqtisodiyotining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi jihatidan katta o'rin egallamasada, ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar hozirgi sharoitda iqtisodiyot sub'ektlari va umuman iqtisodiyot uchun tobora muhimlik kasb etib bormoqda va shu bilan birga, sug'urta tashkilotlarining moliya sektoridagi roli ortib bormoqda. Natijada sug'urta kompaniyalari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi sezilarli darajada ortib bormoqda. Ushbu holat davlat tomonidan sug'urta faoliyatini tartibga solish masalasiga, xususan sug'urta kompaniyalari to'lovga qobilligining ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratish, shuningdek ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Методология/Methodology). Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda statistik kuzatish, taqqoslama tahlil, sintez, mantiqiy fikrlash kabi usullardan foydalanilgan.

Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы / Literature review).

P.I.Borisenkoning ta'kidlashicha, Solvency II doirasida ishlab chiqilgan, Belarus Respublikasida hozirda amal qilayotgan to'lov qobiliyati mezonlarini Solvency II mezonlari bilan taqqoslasak, asosiy uchta ko'rsatkichda farq mavjudligini ko'rish mumkin, bular: - sug'urta zahiralarni baholashga nisbatan yondashuvlar; - investitsiyalarni baholash; - investitsion faoliyat uchun haqiqiy xavf darajasini va diversifikatsiyaning ahamiyatini baholashdir [2]. O.V.Vershina va Y.G.Stupichevalarning fikriga ko'ra, zamonaviy bozor sharoitida sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini atrof-muhit o'zgarishiga moslashadigan tizim sifatida baholash masalalari eng dolzarb hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, to'lov qobiliyati sug'urta kompaniyasining

ishonchligi, uning moliyaviy barqarorligi va shuning uchun kompaniyaning potentsial mijozlar uchun jozibadorligining asosiy ko'rsatkichidir [3]. V.A.Sherbakov sug'urta tashkilotining to'lov qobiliyati darajasi to'g'risida shunday fikrda: xorijiy tajribani hisobga olgan holda, sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatini baholash uchun shuni ta'kidlash mumkinki, sug'urta tashkilotining to'lov qobiliyati darajasi (masalan, Solvency Margin) hisobot davri uchun o'z mablag'larining sug'urta mukofotining sof qiymatiga nisbati sifatida hisoblanadi. Turli mamlakatlarda, shu jumladan Rossiyada to'lov qobiliyatining minimal darajasiga qo'yiladigan talablar biroz farq qiladi va deyarli barchasi 20% doirasida joylashgan [4]. M.B.Moyliyev sug'urta tashkilotining to'lov qobiliyatini yaxshilash masalasida shunday fikr bergan: to'lov qobiliyatini yaxshilash uchun yagona yechim yo'q, balki har bir kompaniya o'ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda kompleks yondashuvni ishlab chiqishi kerak. Eng muhim jihat - bu doimiy monitoring va vaqtida choralar ko'rish mexanizmini yaratishdir [5].

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning zarurligi, bu boradagi ilg'or chet mamlakat tajribasi va O'zbekistondagi mavjud holat to'g'risidagi tahlillardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, sug'urta sohasi o'ziga xos soha bo'lib, sug'urta kompaniyasi ko'p sonli sug'urtalanuvchilarning yuz berishi mumkin bo'lgan katta hajmdagi moliyaviy zararlarini o'z vaqtida qoplay olish imkoniyati, ya'ni to'lovga qobilligi ustidan davlat nazoratini olib borish zarur hisoblanadi. Ushbu talabning bajarilishi o'z o'rnida sug'urtalanuvchilarda sug'urta sohasiga bo'lgan ishonchni hamda sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi [6].

Sug'urta tashkilotlarining to'lovga qobilligini ta'minlash uchun sug'urta kompaniyalari asosan uchta masalaga e'tiborni qaratishlari zarur, bular: to'lov qobiliyatini baholash metodologiyasini takomillashtirish; risklarni boshqarishning samarali usullarini qo'llash; investitsion faoliyat

bilan bo'g'liq risklarni samarali boshqarish va shu bilan birga ushbu faoliyatning daromadlilikini oshirishga e'tibor qaratish.

Sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati ham mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim yo'nalish bo'lib, ushbu faoliyatni tartibga solishda ikkita asosiy yo'nalish mavjud:

- o'z kapitalining tarkibi va tuzilishini tartibga solish;
- o'z kapitalini joylashtirish orqali investitsiya faoliyatini tartibga solish.

Nazorat organlari tomonidan tartibga solish asosan mablag'larni joylashtirish, shuningdek sug'urta zahiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish usullari nuqtai nazaridan amalga oshiriladi. Sug'urta kompaniyasi uchun asosiy masala nafaqat jalb qilingan pul manbalari bo'yicha majburiyatlarni bajarish, balki diversifikatsiyalangan investitsiya portfeli orqali foyda olish imkoniyatidan samarali foydalanishdir.

Shuning uchun sug'urta tashkilotining amaldagi sug'urta zahiralari sug'urtalovchining sug'urtalanuvchilar oldidagi amalda foydalanilmagan majburiyatlaridir.

Sug'urta kompaniyasi tomonidan ushbu majburiyatlarni bajarish zarurati istalgan vaqtda paydo bo'lishi mumkin, shuning uchun qonun hujjatlarida ushbu mablag'larni investitsiyalashda cheklovlar belgilangan.

To'lov qobiliyati qoidalarini hayot sug'urtasi va umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat ko'rsatuvchi sug'urta kompaniyalariga hamda qayta sug'urtalovchilarga nisbatan aktivlar va passivlarni baholash, texnik shartlar, sug'urta zahiralarni shakllantirish, to'lov qobiliyati talablari, minimal kapital, investitsiya qoidalarini, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy hisobotlarini amalga oshirish va tuzish xususiyatlari bilan bog'liq [1].

Operatsion faoliyatdan pul oqimi to'g'risidagi hisobotlarni shakllantirishda hozirgi bosqichda sug'urtalovchi uchun majburiyatlarni to'g'ri baholash muhim hisoblanadi.

Sug'urtalovchi to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita usul yordamida joriy faoliyat bo'yicha pul oqimi to'g'risida hisobot berishi kerak. Bilvosita usulda daromad yoki zararni naqd pul bo'lmagan moddalarni hisobga olish, o'tmishdagi yoki kelajakdagi operatsion pul tushumlari yoki to'lovlarini kechiktirish yoki hisoblash va pul oqimlarini investitsiya qilish yoki moliyalashtirish bilan bog'liq daromadlar yoki xarajatlar moddalari asosida tuzatish kiritishi mumkin.

Yalpi pul tushumlari va yalpi pul to'lovlarining asosiy turlarini ochib beradigan to'g'ridan-to'g'ri usul operatsion faoliyatdan pul oqimlarini ifodalash uchun ham ishlatilishi mumkin. Shu bilan birga, Solvency II standartlariga muvofiq, investitsiya va moliyaviy faoliyatdan keladigan pul oqimlari to'g'ridan-to'g'ri usul yordamida aks ettirilishi kerak.

Solvency II doirasida investitsiya aktivlarini sotib olish va sotishdan tushgan pul oqimlarini baholashda sug'urtalovchilar investitsiya xatarlari va ko'rsatkichlarni xavflilik darajasiga qarab sozlash zarurligini ham hisobga olishlari kerak.

Pul oqimi to'g'risidagi hisobot uchun ma'lum operatsiyalarni tasniflashni ikkita kompaniya misolida oladigan bo'lsak ular bir-biridan farq qilishi mumkin. Chunki bu ular tomonidan amalga oshirilgan biznes va operatsiyalarning xususiyatiga bog'liq. Tasniflash investitsiya aktivlarini sotib olish va tasarruf etishdan kelib chiqadigan pul oqimlarini operatsion pul oqimlarining bir qismi sifatida amalga oshiriladi, chunki bu xaridlar sug'urta qoplamalarini va talabnomalarni chiqarib tashlagan holda, hamda investitsiya to'g'risidagi kontrakt to'lovining ustunligini hisobga olgan holda moliyalashtiriladi.

Alohida investitsion komponentlar yoki risksiz uzatish shartnomalaridan kelib chiqadigan pul oqimlari Solvency II yondashuvining eng muhim elementlaridan biridir.

Ayrim investitsiya komponentlari bilan tuzilgan ba'zi sug'urta shartnomalari va sug'urta riskini o'tkazmasdan tuziladigan shartnomalar uchun sug'urtalovchi pul oqimlarining bir qismi yoki barchasi moliyaviy xususiyatga ega yoki ega emasligini va ular shunday tasniflanishi kerakligini ko'rib chiqish talab etilishi mumkin.

Sug'urta bozoridagi hozirgi vaziyat shuni ko'rsatadiki, ko'plab mamlakatlarning nazorat organlari to'lov qobiliyati qoidalariga yoki zahiralarni hisoblashga qo'shimcha talablar qo'yg'an. Shu bilan birga, sug'urtalovchilarning investitsiya faoliyatini amalga oshirish va zahiralarni joylashtirish masalasida qo'shimcha muammo yuzaga keldiki, bu ko'pgina reyting agentliklari tomonidan o'zlarining to'lovga qobiliyati aniqlash modellarini yoki empirik qoidalarni ishlab chiqdilar, kompaniyalar esa xavflarni aniqroq tahlil qilish uchun ichki modellarni ishlab chiqdilar. Haqiqiy xavf profili bilan aniqroq bog'lanish to'lovga

qobiliyati kapitali talablariga nisbatan standart yondashuvning shakllanishiga olib keladi va bu sug'urta kompaniyalarini o'zlarining individual profilarni aks ettiruvchi ichki modellarni yaratishga undaydi.

Agar Solvency II doirasida ishlab chiqilgan to'lov qobiliyati mezonlarini O'zbekiston sug'urtalovchilari uchun qo'llanilayotgan amaldagi mezonlar bilan taqqoslasak, bir nechta asosiy ko'rsatkichlarda farq ko'za tashlanadi, ular quyidagilar:

- sug'urta zahiralarni baholashga nisbatan yondashuvlar;
- investitsiyalarni baholash;
- investitsion faoliyat uchun haqiqiy xavf darajasini va diversifikatsiyaning ahamiyatini baholash (1-jadval).

1-jadval

Sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatini baholashga yondashuvlar o'rtasidagi umumiy xususiyatlar va farqlarning qiyosiy jadvali

Asosiy mezonlar	Solvency II	Amaldagi me'voriy-huquqiy hujjat
Risklar hisobi	Anderrayting riski hisobga olinadi	Asosan joriy va moliyaviy risklar hisobga olinadi
Sug'urtada risk-management	Sug'urtalovchilar uchun risk-managementga yondashuvni ishlab chiqishni rag'batlantiradi	Dinamik modellar uchun etarli motivatsiya yo'q
Hisoblagichlardan foydalanish	SCR, MVA (Aktivlarning bozor qiymati)	Xususiy kapitalning etarlicha baholash sug'urta makofoti hajmidan kelib chiqib amalga oshiriladi
Baholashga yondashuvlar	Hisobot ma'lumotlari va prognozlashish modellaridan foydalaniladi	Buxgalteriya hisobotlari asosida baholanadi
Aktivlar va majburiyatlarning o'zaro bog'liqligi	Hisobga olinadi	Hisobga qabul qilinmaydi
Vaqtga yo'naltirilganlik	O'tgan ko'rsatkichlar baholanadi, kelajak ko'rsatkichlar prognoz qilinadi	O'tgan ko'rsatkichlar baholanadi

Shunday qilib, Solvency II ko'rsatkichlari doirasida investitsiyalarning maqbulligi aniqlanadi. Qonun chiqaruvchi organ tomonidan sug'urta kompaniyasi amalga oshirishi mumkin bo'lgan investitsiya turlari ro'yxati belgilanadi. Biroq, qiyinchilik shundaki, investitsiya faoliyatini tartibga solish bo'yicha haddan tashqari qat'iy talablar investitsiyalarni diversifikatsiya qilish tamoyiliga to'liq rioya qilmaslik holatlarining ko'payishiga va natijada diversifikatsiya darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Investitsiya faoliyatining diversifikatsiyasini ta'minlash nuqtai-nazaridan O'zbekistondagi shart-sharoitga e'tibor qaratilgan bo'lsak, diversifikatsiyani ta'minlashda qiyinchilik tug'diradigan holatlardan biri sifatida, mamlakatda mavjud investitsiya instrumentlari turli-tumanligining etarli emasligi muammosini keltirish mumkin. Mamlakatda obligatsiyalar bozorining talab darajasida shakllanmaganligi, davlat obligatsiyalari mamlakat ichkarisidagi erkin muomalasining etarli emasligi shular jumlasidandir. Natijada sug'urta kompaniyalari tomonidan yo'naltirilayotga investitsiyalarning asosiy qismini bank depozitlari tashkil etib, ushbu ko'rsatkich yildan-yilga oshib, 2024 yil natijalari bo'yicha 70,1 % ni tashkil etganligini aytib o'tish joiz deb hisoblaymiz.

Ruxsat etilgan aktivlarning har bir pozitsiyasi uchun mablag'lar ortiqcha taqsimlanishining oldini olish va sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati uchun zarur moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida cheklovlar yoki limitlar joriy etiladi. Odatda investitsiyalarning ayrim turlariga maksimal va minimal chegaralarni belgilash ko'zda tutiladi. Ushbu cheklovlar odatda maksimal (minimal) chegaradagi foizlar sifatida belgilanadi.

Sug'urta faoliyatining o'ziga xosligi nuqtai-nazaridan (sug'urta shartnomasi asosida katta hajmdagi javobgarliklarning qabul qilinishi) sug'urta tashkilotlarining to'lovga qobiliyati ta'minlanishi masalasi har doim dolzarblik kasb etadi. Shu munosabat bilan sug'urta tashkilotlarining to'lovga qobiliyati baholashda sinovdan o'tgan eng ilg'or xalqaro normalardan foydalanish ushbu barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda amal qilayotgan Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralari to'g'risidagi Nizomdagi mavjud kamchiliklar va Solvency II talablariga muvofiqlashtirish maqsadlaridan kelib chiqqan holda Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralari to'g'risidagi Nizomga (ro'yxatga olish sanasi 15.12.2008 yildagi 1882-son) o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi buyruq loyihasining ishlab chiqilishi munosabati bilan biz tomonimizdan quyidagilar taklif etilmoqda:

1. Chegirmaning amalga oshirishda:

1.1. Sug'urtalovchining aktivlarini ajratishda sug'urta zahiralari summasidan qayta sug'urtalovchilarning ulushlarini chegirib tashlash;

1.2. Oldingi 12 oy ichida barcha sug'urta (qayta sug'urta) shartnomalari bo'yicha hisoblangan sug'urta mukofotlari summasidan chiquvchi qayta sug'urtalash xarajatlarini chegirib tashlash;

1.3. Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati marjasi hisobidagi soliqlar va yig'imlar bo'yicha debitorlik qarzdorlik summasini istisno qilish.

2. Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi Nizomning 33, 34 va 35-bandlarining v) kichik bandida belgilangan qayta sug'urta operatsiyalariga qo'yiladigan talablarni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-Qarori 5-bandida belgilangan talabni O'zbekiston Respublikasidan tashqarida bo'lgan xatarlarni qayta sug'urta qilishda chiqarib tashlash.

Xulosa (Выводы/Conclusion).

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, sug'urta faoliyatining o'ziga xos xususiyati, ya'ni ko'p sonli sug'urtalanuvchilar tomonidan o'z hayoti, sog'lig'i yoki faoliyati bilan bog'liq risklarni sug'urtalovchilarga

ishonib topshirishlari va buning uchun "sug'urta mukofoti" deb nomlangan to'lovni oldindan amalga oshirishi, sug'urta kompaniyalarining to'lov qobiliyati ustidan doimiy ravishda davlat nazoratining o'rnatilishiga bo'lgan zaruratni keltirib chiqaradi. O'z o'rinda ushbu nazoratning samaradorligini ta'minlash uchun ushbu samaradorlikni baholab borish, baholash usullarini takomillashtirib borish talab etiladi. Su bilan birga ushbi baholashni sug'urta kompaniyalarining o'zlari tomonidan ham amalga oshirib borish masalani yanada mukammal yechimini ta'minlaydi.

Bugungi globallashtirish sharoitida, sug'urta faoliyati rivojlangan aksariyat mamlakatlarda qo'llanilayotgan, to'lovga qobiliyati baholovchi Solvency II talablariga to'lovga qobiliyati baholashning milliy me'yorlarini muvofiqlashtirib borish mazkur masalada milliy bozorlardagi mavjud muammolarni hal qilish va natijada ko'p sonli sug'urtalanuvchilar manfaatlarini himoya qilish, shu bilan birga sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Врезубова Т.В. Применение риск-ориентированного подхода при оценке платежеспособности страховых организаций // Новая экономика. 2021. № 1. С. 197-204.
2. Borisenko P.I. Osobennosti otsenki platejesposobnosti straxovoy organizatsii na sovremennom etepe. Mejdunarodniy nauchniy jurnal "Vestnik Nauki". # 6 (63) T.1. 06.2023.
3. Вершинина О.В. Ступичева Я.Г. ПРОБЛЕМЫ И КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ. //Бизнес в законе. 5. 2010.
4. Щербakov В.А. Страхование: учебное пособие / В.А. Щербakov, Е.В. Костяева. – 3-е изд. перераб. и доп. – М.: КНОРУС, 2009. – 320 с. ISBN 978-5-406-00037-3.
5. Moyliyev M.B. Sugurta kompaniyalarining to'lov qobiliyatini yaxshilash yo'llari. //INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 8,293 Volume 10, issue 2, March 2025
6. Қўлдошев, Қ. (2023). SUG'URTA FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN NAZORAT QILISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA BU BORADAGI CHET EL TAJRIBALARINI QO'LLASH MASALALARI . Страховой рынок Узбекистана, 1(2), 12–15. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/26>
7. International Actuarial Association. Solvency II [Электронный ресурс]. URL: http://www.actuaries.org/CTTEES_TFSP/Documents/Hague_Item3c_GC_Solvency2.pdf
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 02-avgustdagi "ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ СУГУРТА БОЗОРИНИ ИСЛОХ ҚИЛИШ ВА УНИНГ ЖАДАЛ РИВОЖЛАНИШИНИ ТАЪМИНЛАШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА" GI 4412-SON QARORI. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.08.2019 й., 07/19/4412/3512-сон).
9. Молия вазирининг 2008 йил 20 ноябрдаги 107-сон буйруғи билан тасдиқланган Сугурталовчиларнинг сугурта захиралари тўғрисидаги НИЗОМ. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 30.11.2021 й., 10/21/3338/1117-сон.
10. Молия вазирининг 2008 йил 22 апрелдаги 41-сон буйруғи билан тасдиқланган Сугурталовчилар ва қайта сугурталовчиларнинг тўлов қобилияти тўғрисидаги НИЗОМ. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 30.11.2021 й., 10/21/3338/1117-сон.